

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

SALOYDINOVA NARGIZA SHUHRATOVNA

**ARXITEKTURA-QURILISH TERMINLARINING
LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI
(ingliz va o‘zbek tillari misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Saloydinova Nargiza Shuhratovna

Arxitektura-qurilish terminlarining leksik-semantik xususiyatlari
(ingliz va o‘zbek tillari misolida)..... 3

Салойдинова Наргиза Шухратовна

Лексико-семантические особенности архитектурно-строительных
терминов (на примере английского и узбекского языков)..... 25

Nargiza Shukhratovna Saloydinova

Lexic-Semantic Peculiarities of Architecture-Construction terms
(on the example of the English and Uzbek languages)..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 53

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

SALOYDINOVA NARGIZA SHUHRATOVNA

**ARXITEKTURA-QURILISH TERMINLARINING
LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI
(ingliz va o‘zbek tillari misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2981 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Axmedov Oybek Saporbayevich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Siddikova Iroda Abduzuxurovna
filologiya fanlari doktori, professor

Egamnazarova Durdona Shuxratillayevna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,(PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil/Ped.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «13» noyabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (27 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9A mavzesi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «14» noyabr kuni tarqatildi.
(2023 yil «14» noyabr dagi 27 raqamli reyestr bayonnomasi)



Gus

G.X. Bakiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, filol.f.d., professor

X.B. Samigova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

J.A. Yakubov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d.,
professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida terminshunoslikni yangi paradigmalarda doirasida tahlil va tadqiq etish, terminologik birliklarning leksik-semantik, struktur-semantik xususiyatlarini aniqlash, leksik birliklarni tizimlashtirish, me'yorlashtirish va tartibga solish muammolarini qiyosiy-tipologik umumlashmada tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb vazifalari sirasiga kiradi. Til va jamiyatning uzviy bog'liqligi, ularning tinimsiz o'zgarishlarga uchrashi, qolaversa, arxitektura va qurilish sohasiga oid yangi termin va neologizmlarning muntazam shaklda o'zlashtirilishi hamda faol qo'llanilishi tilshunoslik sohasida ilmiy va amaliy ahamiyatga ega tadqiqotlarni olib borish zaruratini belgilaydi.

Dunyo tilshunosligida arxitektura va qurilish sohasiga oid termin tizimini ingliz va o'zbek tillari kesimida tahlil qilish, ularni tarjima qilish usullari, metod va metodologiyalarini takomillashtirish chog'ishtirilayotgan tillarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi lingvistik va ekstralingvistik omillarni hamda ikki til terminologiyasining farqli va o'xshash xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada arxitektura va qurilish sohasiga oid lug'aviy birliklarning o'ziga xos ifoda imkoniyatlari va leksik-semantik xususiyatlarini tilshunoslik tamoyillari va mezonlari asosida yoritib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy, arxitektura va qurilish sohalarini kompleks rivojlantirilishga qaratilgan tub o'zgarishlarning amalga oshirilishi arxitektura va qurilish sohasiga oid termin tizimiga oid izlanishlarni amalga oshirishni taqozo etadi. Bugungi kun taraqqiyot tamoyillariga asoslangan holda "ilmiy-tadqiqot ishlari samaradorligini oshirish, davlat ilmiy va innovatsion dasturlari ijrosini muvofiqlashtirish, shuningdek, ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasida integratsiyani ta'minlash; ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari asosida davlat ilmiy dasturlarini shakllantirish, ilmiy darajali kadrlarni tayyorlash tizimini muvofiqlashtirish"¹ga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib, chog'ishtirilayotgan tillarda arxitektura va qurilish sohasiga oid til birliklarining leksik-semantik, struktur-semantik va tarjimada berilish xususiyatlarini yangi metodologik tamoyillar asosida ilmiy tadqiq etish talabi yuzaga keladi. Oliy ta'lim va fan sohasidagi ilmiy izlanishlar samaradorligini oshirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarining xalqaro darajada e'tirof etilishini ta'minlash maqsadida mazkur ishlarning amalga oshirilishi zamonaviy tilshunoslikda ustuvor ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" PQ-3646-son, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari, 2018-yil 2-apreldagi PF-5392-son "Qurilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-200-son qarori // <https://lex.uz/docs/-6518515?query=ilmiy%20tadqiqot%20va%20innovatsiya#sr-1>

tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 370-son "Arxitektura va qurilish sohasida davlat xizmatlari ko'rsatishning ayrim ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda qayd etilgan kasbiy faoliyat, ta'lim sifatini oshirish bilan bog'liq qator vazifalarni amalga oshirishga mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillaridagi arxitektura va qurilish sohasiga oid termin va leksemalarning leksik-semantik, struktur-funksional xususiyatlari hamda tarjimada berilish muammolarining o'rganilishi tilshunoslik ilmi oldida turgan dolzarb vazifalardan sanaladi.

Tilshunoslikda terminologiyaga oid ilmiy-nazariy qarashlar va lisoniy qonuniyatlar rus tilshunoslari: G.O. Vinokur, A.A. Reformatskiy, D.C. Lotte, A.D. Xayutin, A.V. Superanskaya, E. Koroleva, O.V. Dobish, G.A. Sergeyeva; o'zbek tilshunoslari: R. Doniyorov, A. Hojiyev, A. Madvaliyev, H. Dadaboyev, O.S. Axmedov, G.I. Ergashova, X.D. Paluanova, Sh.N. Abdullayeva, A.M. Kurganov, A.A. Ayakulovlar² tomonidan yanada rivojlantirildi.

²Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии / Татаринев В.А. История отечественного терминоведения. Т.1. Классики терминоведения. Очерк и хрестоматия. – М.: Московский лицей, 1994. – С. 218–284; Реформатский А.А. Мысли о терминологии // Современные проблемы русской терминологии. – М., 1976. – С. 56–275.; Лотте Д.С. Вопросы заимствования и упорядочения иноязычных терминов и терминологических элементов. – М., Наука, 1982. -147 с.; Хаютин А.Д. Термин терминология и номенклатура. – Самарканд: 1971. – 214 с.; Суперанская А.В. Общая терминология. Вопросы теории. – М.:1986. – 171 с.; Королева Е. Трудности учебного перевода терминов и приемы их преодоления. Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. – М., 2005. – 25 с.; Добыш О.В. Английская финансовая терминология и проблема ее перевода на русский язык. Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. – М., 2003. – 26 с.; Сергеева Г.А. Англоязычные заимствования в украинской юридической терминологии: Автореф. дисс. ...канд. филол.наук. – Харьков: 2002. – 24 с.; Данияров Р. Техническая терминология узбекского языка на современном этапе: Дисс. ...д-ка.филол.наук. - Т.:1988. – 272 с.; Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Т.: 1977. – 262 б.; Ҳожиев А. Ўзбек тили илмий-техникавий терминологиясини тартибга солиш принциплари. Монография. – Т.: 1991. – 159 б.; Мадвалиев А. Узбекская химическая терминология и вопросы ее нормализации: Автореф. дисс...канд.филол.наук. -Т.: 1986. –25 с.; Мадвалиев А. Ўзбек терминологиясида дублетлик масаласи //Ўзбек тили ва адабиёти. 1982. № 3. – 123 б.; Дадабаев Ҳ. Военная лексика в староузбекском языке: Дисс...канд.филол.наук. – Т.:1981. –176 с.; Дадабаев Ҳ. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI – XIV вв: Дисс...д-ра филол.наук. –Т.: 1991. – 356 с.; Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ ва божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари: Филол. фан. д-ри. ... дисс. – Т., 2016. – 256 б.; Эргашева Г.И. Турли тизимдаги тилларда гендерга оид терминологиянинг шаклланишида лингвистик ва экстралингвистик омиллар. Филол. фан. д-ри. (DSc) ... дисс. автореф. – Т., 2018.; Палуанова Х.Д. Экологик терминларнинг деривацион-семантик хусусиятлари (ўзбек, қорақалпоқ, инглиз ва рус тиллари мисолида). Филол.фан. д-ри. (DSc) ... дисс. автореф. – Т., 2016. – 88 б.; Абдуллаева Ш.Н. Ғазначилик соҳасида қўлланиладиган молиявий-иқтисодий терминларнинг чоғиштирма тадқиқи (инглиз, ўзбек, рус тиллари мисолида). Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри. дисс. – Т., 2018. – 161 б.; Курганов А.М. Инглиз ва ўзбек тилларида ҳарбий терминлар қўлланилишининг лингвокультурологик хусусиятлари. Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри. дисс. автореф. – Т., 2021. – 56 б.; Аякулов Н.А. Инглиз ва ўзбек тилларида спорт терминларининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри ... дисс. автореф. – Т., 2021. – 72 б.

Arxitektura va qurilish terminlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar bir qator xorijlik va mahalliy olimlar: A.S. Grinev, A.Z. Abduraxmanova, L.N. Cherkasova, N.A. Minakova, M.M. Bekmurodov, Z.U. Xakiyeva, I.A. Klepalchenko, K. Sapayevlar³ tomonidan amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №I-204-4-5 "Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o'rtasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlar" ilmiy loyihasining "Ingliz va o'zbek tillarining qiyosiy tipologiyasi" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida arxitektura va qurilish sohasiga oid terminlarning leksik-semantik, struktur-semantik xususiyatlari va ularni tarjimada berish usullarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va o'zbek tillarida arxitektura va qurilish sohasiga oid terminlarning leksik-semantik, struktur-semantik xususiyatlarini o'rganish;

ingliz va o'zbek tillarida arxitektura va qurilish obyektlari hamda madaniy meroslarni nomlovchi terminlarning o'ziga xosligini aniqlash;

arxitektura va qurilish sohasi terminologiyasini chog'ishtirish orqali struktur-semantik jihatdan tadqiq etish va morfologik modellarini ishlab chiqish;

arxitektura va qurilish sohasi terminologiyasini tarjima xususiyatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obykti sifatida ingliz va o'zbek tillaridagi arxitektura va qurilish sohasiga oid terminlar tanlangan.

Tadqiqotning predmeti ingliz va o'zbek tillarida arxitektura va qurilish sohasiga oid terminlarning leksik-semantik va struktur-semantik hamda ularni tarjimada berilish xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada lingvistik tavsiflash, chog'ishtirma tahlil, tarixiy-etimologik, komponent tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillaridagi arxitektura va qurilish terminologik birliklarininig tushunchaviy maydoni xalqlarning ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-siyosiy mezonlarda rivojlanishi asosida ularning lingvomadaniy omillar ta'sirida insoniyat sivilizatsiyasining real ehtiyoji bilan parallel tarzda yuzaga kelganligi leksik birliklarni tarixiy-davriy bosqichlarga ajratish orqali dalillangan;

³Grinev A.S. Сопоставительный анализ английской и русской архитектурной терминологии (на материале тематического поля "Теория и история архитектуры": Дисс. ...канд.филол.наук. – М., 2004. – 152 с.; Абдурахманова А.З. Лингвистическое моделирование строительной терминологии (на материале английского языка): Дисс. ... канд. филол. наук – М., 2016. – 178 с.; Черкасова Л.Н. Лексико-семантическая характеристика строительной терминологии: Дисс. ... канд. филол. наук – М., 1998. – 168 с.; Минакова Н.А. Особенности формирования и структура строительной терминологии русского языка: Дисс. ... канд. филол. наук – М., 1985. – 141 с.; Бекмуродов М.М. Лексико-семантический и структурный анализ строительной терминологии: На материале таджикского и английского языков: Дисс. ... канд. филол. наук – Душанбе. 2002. – 166 с.; Хакиева З.У. Англоязычная терминология строительства и строительных технологий: структура, семантика и динамика развития: Дисс. ... канд. филол. наук – Пятигорск. 2013. – 163 с.; Клепальченко И. А. Сопоставительный анализ лексики семантической группы "Лестницы и элементы лестничных конструкций": На материале английского и русского языков: Дисс. ... канд. филол. наук – М., 1999. – 160 с.; Сапаев К. Строительная терминология узбекского языка: Дисс. ... канд. филол. наук – М., 1985. – 165 с.

chog'ishtirilayotgan tillardagi arxitektura va qurilishga oid leksik birliklarning matnlar tarjimasida konnotativ va denotativ xususiyatlarini aniqlash, leksik guruhlarga hamda aslyat tilidagi xos va xos bulmagan leksik birliklarga ajratish hamda termin ma'nosini matnda ochib berish orqali terminlarning "to'liq leksik-semantik muvofiqlik", "qisman leksik muvofiqlik", "umuman leksik nomuvofiqlik", "nomutanosib leksik muvofiqlik" jihatlari asoslangan;

chog'ishtirilayotgan tillardagi arxitektura va qurilish terminologiyasida qo'llaniladigan terminlarining tarjima imkoniyatiga ko'ra transkripsiya, transliteratsiya, so'zma-so'z (kalka) tarjima qilish, ma'nosi yaqinlashtirilgan so'z bilan o'zgartirish hamda matnga oid muqobil bilan almashtirishda tarjima aspektiga xos bo'lgan kognitiv va lingvomadaniy yondashuv zarurati isbotlangan;

ingliz va o'zbek tillarida arxitektura va qurilish terminlarining turli leksik-semantik guruhlar (shaxs, predmet va obyekt, shakl, harakat, yo'nalish va o'rin-joy)ga ajratish orqali sodda, qo'shma, juft, qisqartma, ikki yoxud uch uzvli formal-struktur belgilarini ajratish orqali ularning sof terminlar, termin-leksemalar va so'z birikma shaklidagi leksik birliklar tarzida ifodalanishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

arxitektura va qurilish sohasiga oid terminlarning zamonaviy qurilish va shaharsozlik sohasiga qay darajada bog'liqligining ilmiy asoslanishi mazkur sohada faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar tomonidan keng qo'llanuvchi, ommabop hamda nutqimizda uchrayotgan yangi arxitektura va qurilish sohasiga doir leksik birliklarning ingliz hamda o'zbek tillarida shakllanishida o'ziga xos o'xshash va farqli jihatlari aniqlangan;

nofilologik ta'lim yo'nalishlari, ya'ni arxitektura va qurilish ixtisosliklari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratishda, turli lug'atlarda berilgan arxitektura va qurilish terminlarining leksikografik tavsifi, arxitektura va qurilish terminlarining izohli lug'ati, ingliz va o'zbek leksikologiyasi bo'yicha ma'ruza matnlarini tayyorlashda foydalanilgan.

ingliz va o'zbek tillarida arxitektura va qurilish sohasiga oid terminlarning shakllanish xususiyatlari (asl/tub termin, yasama termin, o'zlashma termin, intertermin)ni chog'ishtirma aspektida o'rganish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan;

ingliz va o'zbek tillarida arxitektura va qurilish sohasiga oid terminlarning ichki va tashqi omillar asosida shakllanishi, takomillashuv jihatlari, qiyosiy-tipologik tadqiqi orqali chiqarilgan xulosalar arxitektura va qurilish sohasi bo'yicha yaratiladigan darslik va o'quv qo'llanmalarining mukammallashuviga xizmat qilishi asoslangan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan tadqiqot usullari va ilmiy-nazariy ma'lumotlarning aniq, ilmiy manbalarga tayanilganligi, keltirilgan tahlil hamda natijalarining asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati terminologik birliklarning yasash qonuniyatlarini aniqlash va tushunish, formal strukturaning leksik birliklar tomonidan ifoda qilinayotgan

mazmunga bog‘liq ravishda o‘ziga xos funksional-semantik xususiyatlarini o‘rganish, nominatsiyaning terminologik birliklari o‘rtasidagi mavjud aloqalar va munosabatlarni, xususan, ularning tarjimasidagi denotativ va konnotativ hamda ekvivalentlik munosabatlarini o‘rganish – bularning hammasi terminologiyani tartibga solish, me‘yorlashtirish va standartlashtirish ishida muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati nofilologik yo‘nalishdagi oliy o‘quv yurtlarida ingliz tili fanidan amaliy darslarda, jumladan, arxitektura va qurilish sanoati tarkibiga kiruvchi barcha materiallarni qo‘llash va ishlab chiqarish texnologiyalari bilan bog‘liq terminlarni o‘rgatishda, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, turli lug‘atlarni yaratishda va universitetlarning filologiya fakultetlarida “Leksikologiya”, “Terminologiya asoslari”, “Leksikografiya”, “Terminografiya” kabi fanlar bo‘yicha o‘quv adabiyotlari, o‘quv-uslubiy majmualar tayyorlashda, shuningdek, magistrlik va doktorlik dissertatsiyalarini yozishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillarida arxitektura va qurilish sohasi terminologik birliklarini leksik-semantik tahlil va tadqiq etish natijasida olingan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

ingliz va o‘zbek tillaridagi arxitektura va qurilish terminologik birliklarininig tushunchaviy maydoni xalqlarning ijtimoiy-tarixiy, ijtimoiy-siyosiy mezonlarda rivojlanishi asosida ularning lingvomadaniy omillar ta‘sirida insoniyat sivilizatsiyasining real ehtiyoji bilan parallel tarzda yuzaga kelganligi leksik birliklarni tarixiy-davriy bosqichlarga ajratishga oid ilmiy xulosalardan Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan bajarilgan PZ-2020112930-raqamli “Yirik daryolardan to‘g‘onsiz suv olish gidrotexnika inshootlaridan foydalanishda gidravlik moslash texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot institutining 2023-yil 14-martdagi 01/245-son ma‘lumotnomasi).

chog‘ishtirilayotgan tillardagi arxitektura va qurilishga oid leksik birliklarning matnlar tarjimasida konnotativ va denotativ xususiyatlarini aniqlash, leksik guruhlarga hamda asliyat tilidagi xos va xos bulmagan leksik birliklarga ajratish hamda termin ma‘nosini matnda ochib berish orqali terminlarning “to‘liq leksik-semantik muvofiqlik”, “qisman leksik muvofiqlik”, “umuman leksik nomuvofiqlik”, “nomutanosib leksik muvofiqlik” jihatlariga doir ilmiy-nazariy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar akademiyasida 2021-2022-yillarda bajarilgan “O‘zbek harbiy san‘ati tarixi” nomli fundamental loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining 2023-yil 20-apreldagi 10/684-son ma‘lumotnomasi). Natijada gidroenergetik inshootlarning qurilishiga oid qo‘llanmalarni tarjima qilish, gidrotexnika inshootlariga oid qo‘shimcha moslamalarga oid o‘zlashma terminlarning muqobilini berish, qurilish sohasiga oid signifikativ terminlarning shakllanish jarayoni va ularni joriy qilishga doir ilmiy-nazariy qarashlar loyiha mazmun-mohiyatini boyitgan;

chog‘ishtirilayotgan tillardagi arxitektura va qurilish terminologiyasida qo‘llaniladigan terminlarining tarjima imkoniyatiga ko‘ra transkripsiya, transliteratsiya, so‘zma-so‘z (kalka) tarjima qilish, ma‘nosi yaqinlashtirilgan so‘z

bilan o'zgartirish hamda matnga oid muqobil bilan almashtirishda tarjima aspektiga xos bo'lgan kognitiv va lingvomadaniy yondashuv zaruratiga oid ilmiy xulosalardan Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan bajarilgan PZ-2020112930-raqamli "Yirik daryolardan to'g'onsiz suv olish gidrotexnika inshootlaridan foydalanishda gidravlik moslash texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot institutining 2023-yil 14-martdagi 01/245-son ma'lumotnomasi). Natijada tadqiqot ishi natijalari turli xil turdagi lug'atlarda berilgan arxitektura va qurilish terminlarining leksikografik tavsifini takomillashtirishda xizmat qilgan;

ingliz va o'zbek tillarida arxitektura va qurilish terminlarining turli leksik-semantik guruhlar (shaxs, predmet va obyekt, shakl, harakat, yo'nalish va o'rin-joy)ga ajratish orqali sodda, qo'shma, juft, qisqartma, ikki yoxud uch uzvli formal-struktur belgilarini ajratish orqali ularning sof terminlar, termin-leksemalar va so'z birikma shaklidagi leksik birliklar tarzida ifodalanishiga oid xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston 24" teleradiokanali DUK "Madaniy-ma'rifiy va badiy eshittirishlar" muharririyati tomonidan 2022-yil noyabr va dekabr sonlarida e'fira uzatilgan "Millat va ma'naviyat", "Ta'lim va taraqqiyot" nomli radioeshittirishlarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 19-yanvardagi 03-09-36-son ma'lumotnomasi). Natijada ko'rsatuvda Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq" asarlarida keltirilgan arxitektura va qurilish sohasiga oid terminlarning zamonaviy qurilish sohasiga qay darajada bog'liqligi ilmiy jihatdan sharhlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 21 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 5 ta respublika, 7 ta xorijiy jurnallarda (2 ta SCOPUS) e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, ishning umumiy hajmi 150 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, usullari tavsiflangan, tadqiqot obyekti, predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Arxitektura-qurilish sohasi terminlari tadqiqining ilmiy-nazariy va metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobda jahon va o‘zbek tilshunosligida arxitektura-qurilish sohasi termin tizimiga oid mavjud nazariy asoslar va yondashuvlar, fan taraqqiyotining hozirgi bosqichida terminologiya sohasining o‘rni va ahamiyati, chog‘ishtirilayotgan tillarda arxitektura-qurilish terminlarining tarixiy shakllanish va rivojlanish bosqichlari haqidagi ilmiy-nazariy mulohazalar yoritilgan.

Terminga oid o‘ziga xos murakkab yondashuvlar, fikrlar plyuralizmi Felberning “terminlar – tushunchaning lisoniy belgisidir” mulohazasini asosli ekanligini dalillaydi. Tammerman Rondoning fikricha, “qurilish sohasiga oid terminlar faqat aynan shu soha doirasida xizmat qiladi”⁴.

Tilshunos olim X. Arziqulov ham fan va texnikaning sohaga ta’sirini hisobga olib, ilmiy tadqiqotida terminlar haqida o‘ziga xos noyob fikrlarini havola etadi: “Har qanday so‘z va so‘z birikmasi, hatto tinish belgilari, relyatorlar ham terminlar vazifasini bajaradi”⁵.

Biz olimning fikriga qo‘shilamiz, boisi ushbu asrda fanning barcha sohasi tobora kengayib, o‘zaro integratsiyalashayotgan aniq yoki kibernetika fanlari tarkibida bir kichik belgi, ishora yoki tasvir ham muayyan vazifani bajarib kelmoqda. Bu kabi terminlar kashfiyotchi olimlar tomonidan umumiste’molga taqdim qilinmoqda. Qayd etish joizki, ba’zi hollarda tadqiqot obyekti hisoblangan arxitektura-qurilish sohasiga xos termin va terminologik birliklarni nafaqat uning tarkibiy doirasida, balki “tashqi sferalar” (og‘zaki nutq jarayonida, badiiy, ilmiy, hajviy adabiyotlar)da qo‘llaniladigan terminologik birliklardan ham manba sifatida foydalanish inkor etilmaydi. Aynan, “tashqi sferalar”larni hisobga olib, V.A. Tatarinov “terminologik tizim atamasi terminologiyaning kognitiv modelini yoki domenning meta-modelini aks ettiradi”⁶, – degan fikrni qayd etadi.

Bu kabi qarashlardan so‘ng bir qancha tadqiqotchilar, tilshunos olimlar va terminologlar terminda, tabiiy ravishda, leksik ma’noning mavjudligini tan olishadi. Biz “terminlar – faqat “majburiy ilmiy ta’rif”ga ega bo‘lgan so‘zlar”⁷, - degan fikrga qo‘shilamiz va qo‘llab-quvvatlaymiz.

Yuqoridagi yondashuvlarga asosan, terminologiya tarkibi tizimli tashkil etilgan leksik birliklardan iborat, agarda muayyan soha tarkibida leksik birliklar vujudga kelmasa, o‘sha soha rivojlanishdan to‘xtaydi, albatta.

Tadqiqot natijalari orqali shuni aytish joizki, til sathida mavjud lisoniy birliklar o‘ziga xos shakliga ko‘ra alohida, mustaqil faoliyat ko‘rsatayotgandek ko‘rinsa ham, ular o‘zaro biri ikkinchisiga uzviy bog‘liqdir. Muayyan til sathidagi barcha leksik birliklar birgalikda bir butun, ya’ni yaxlit leksik tizimni tashkil qiladi va bu tizim ichida leksemalararo o‘zaro munosabatga kirishishadi. Bu borada V.M. Solnsevning

⁴ Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description. The Sociocognitive approach, 2000.

⁵ Арзикулов Х. Семантические проблемы в терминологических системах французского языка (на материале онкологической терминологии). Автореф. дис...канд.филол.наук. – Л.: 1980 –24 с.

⁶ Татаринов В.А. Теория терминоведения/В.А. Татаринов//Теория термина: История и современное состояние. – М.: Московский лицей, 1996. - Т. 1. - 311 с.

⁷ Аъзамов С.М. Инглизча-ўзбекча тўқимачилик ва энгил саноат терминларининг структур-семантик таҳлили: Филол. фан.фалс. д-ри (PhD) дисс. – Андижон, 2020. – 36 б.

“Tizim muayyan leksik halqaning o‘zaro munosabatda bo‘lgan elementlardan tashkil topgan bir butun obyektidir”⁸, – degan fikri ham asoslidir.

Ushbu paragrafda termin va so‘z munosabati uyg‘unligining mazmun-mohiyati ilmiy-nazariy jihatdan ochib berilgan. Aksariyat tilshunos olimlar, tadqiqotchilar o‘rtasida bahs-munozaraga sabab bo‘layotgan masalalardan biri shuki, *nutq birliklari so‘zmi yoki terminmi?*

Terminlar, shubhasiz, nutq birliklari hisoblanadi, faqat ularda so‘zlarga nisbatan muayyan chegaralar mavjud. Termin va so‘z uyg‘unligi haqidagi fikr va qarashlar V.M. Solnsev ishlarida ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Bizning fikrimizcha, termin til birligi sifatida qabul qilinishidan oldin u nutq birligi bo‘lgan, chunki har qanday yangi leksik birlik ma‘nosidan qat’i nazar, dastavval, og‘zaki nutq birligi sifatida muayyan lisoniy vazifani bajaradi. Shunday qilib, terminning nutq doirasidan til doirasiga o‘tishi va tegishli leksikografik manbalardan o‘rin egallashi lingvistik va ekstralingvistik hodisaning tabiiy mahsulidir⁹. Ushbu fikrlarga tayanib, termin va so‘zning nutq birligi sifatida vujudga kelishi tabiiy hodisa, ularning til birligi sifatida qo‘llanishi esa notabiiy deyish nazariy jihatdan maqsadga muvofiq.

Tahlil jarayonida “so‘zlar ma‘nosining torayishi terminlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratishi”¹⁰ haqidagi nazariy fikrlardan ma‘lum bo‘ldiki, hozirda olimlar terminlarni muayyan sohalar bilan chegaralash jarayoniga jiddiy e‘tibor qarata boshladi.

Izlanishimiz jarayonida tabiiy ravishda bir savol tug‘iladi. ***Biz qo‘llaydigan terminlar, aslida, oddiy so‘zlardan nimasi bilan farqlanadi?*** Rus olimi G.O. Vinokur so‘z va termini farqlash va ajratish jarayonida ularning leksik-semantik, funksional-semantik xususiyatlariga e‘tibor qaratib, ikki xil yondashuv asosida izohlagan: 1) terminlarning ma‘nolaridagi (maxsus sohaga nisbatan) xoslik, ma‘no chegaralaridagi aniqlik va ixchamlik; 2) intellektual shaffoflik, ... majoziy va hissiy jihatdan neytrallik¹¹. Olimning fikrlarga qo‘shilgan holda R.A. Budagov: “Termin – qat’iy aniq fikr... termin bir ma‘nolilikka intiladi”, – deb ta’kidlaydi¹². Olim termin va so‘z nisbatiga yanada teranroq tavsif bergan. “Termin so‘zlardan nafaqat bir ma‘nolilikka moyilligi bilan farqlanadi, balki his-tuyg‘uni ifodalovchi xususiyatlardan “mahrumligi” bilan ham ajralib ham turadi”, – deya ta’kidlanadi¹³. Ushbu fikrlar tahlili asosida terminlar yengil va kuchli ta’sirchanlik, ijodiy yorqinlik, o‘tkirlik, noziklik, his-tuyg‘u kabi xususiyatlarni o‘zida mujassam ettirmaydi, deyish maqsadga muvofiq, albatta.

“*Termin asosan o‘zi mansub soha doirasida ishlatiladi*” mazmunidagi ilmiy-nazariy mulohaza negizida tadqiqot manbasi sifatida muayyan sohaga oid matnlarni tanlab olish va ular tarkibidagi soha terminlarini tahlil qilish mohiyati anglashiladi.

⁸Солнцев В.М. Курс общей лингвистики. – Москва, 1977. –19 с.

⁹Саримсоқов Х.А. Инглиз ва ўзбек тилларида спорт терминлари: таҳлил ва тадқиқ. Монография. – Тошкент, 2022. – Б. 30.

¹⁰Pavol S. The Oxford Handbook of Compounding – Oxford University Press, 2009. – P. 218.

¹¹Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии / Татаринов В.А. История отечественного терминоведения. Т. I. Классики терминоведения. Очерк и хрестоматия. – М.: Московский лицей, 1994. – С. 218 – 284.

¹²Будагов Р.А. Человек и его язык. –М.: МГУ, 1976. – С.176.

¹³Брагина А.А. Значение и оттенки в термине. // Терминология и культура речи. – М.: Наука, 1981. С. 37–38.

“Arxitektura va qurilish terminlarining struktur-semantik xususiyatlari” nomli ikkinchi bobda ingliz va o‘zbek tillarida arxitektura va qurilish terminlarining shakllanishida leksik-semantik, morfologik hamda sintaktik usullarning samaradorligiga oid ilmiy-nazariy xulosalar keltiriladi.

Chog‘ishtirilayotgan tillarda arxitektura va qurilish sohasiga oid ingliz tili terminlarining shakllanishida affiksatsiya so‘z yasovchi (prefiks, suffiks, infiks va sirkumfiks) va inflektatsiya (so‘z o‘zgartiruvchi: *-s (-es; -ies); -ed (-d); -ing*) usullari muhim o‘rin tutadi.

Ingliz tilida affiksatsiya usulida “suffiks va prefikslar, ya’ni so‘z yasovchi formantlar o‘zida tilning eng kichik (minimal) so‘z yasovchi qurilish elementlarini aks ettiradi”¹⁴. Mazkur usul ingliz tilida ancha faol qo‘llanuvchi usul bo‘lib, soha terminlarining yasalishida muhim ahamiyat kasb etadi. Amalga oshirilgan ko‘plab chog‘ishtirma tilshunoslikka doir tadqiqotlarda kuzatish mumkinki, affikslar bilan qo‘shimchalar o‘rtasidagi farq yetarlicha ochib berilmaganligi bois bu masala bugungi kungacha bahstlab va ancha mavhum bo‘lib qolmoqda.

1-jadval

Prefiksatsiya orqali hosil bo‘lgan leksik birliklar

| <i>Prefixes</i> | <i>Ma’nosi</i> | <i>Namuna</i> | <i>Turkumi</i> | <i>O‘zbekcha ma’nosi</i> |
|-----------------|-------------------|-----------------------|-------------------|--------------------------|
| <i>anti-</i> | <i>qarshi</i> | <i>anti- seismic</i> | <i>Adj.- sif.</i> | <i>zilzilaga qarshi</i> |
| <i>auto</i> | <i>mustaqil</i> | <i>auto-crane</i> | <i>N – ot</i> | <i>avtokran</i> |
| <i>co-</i> | <i>birga</i> | <i>co-operation</i> | <i>N – ot</i> | <i>hamkorlik</i> |
| <i>de-</i> | <i>no-, inkor</i> | <i>de-activate</i> | <i>V- fe’l</i> | <i>nofaollashtirmoq</i> |
| <i>down</i> | <i>pastga</i> | <i>down-shift</i> | <i>N – ot</i> | <i>pasaytirish</i> |
| <i>im</i> | <i>no-, inkor</i> | <i>im-balance</i> | <i>N – ot</i> | <i>nomutanosib</i> |
| <i>quadri</i> | <i>to‘rt</i> | <i>quadri-lateral</i> | <i>N – ot</i> | <i>to‘rtburchak</i> |

Tadqiqot jarayonida aniqlangan elektron va poligrafik manbalarga ko‘ra, hozirgi ingliz tilida umumiy prefikslar soni 90-95 tani tashkil etadi¹⁵. Xususan, ingliz tili arxitektura va qurilish sohasi tarkibida faol qo‘llanuvchi old qo‘shimchalar quyidagilardir: **bi** (two – ikki, juft) – *bispherical – bisferik; biangle – qo‘shburchak; hemi* (*half – yarim*) – *hemiarth – yarim ark; hemimatrix – yarim matritsa (katak); hemimetameric – yarim o‘lchovli; inter* (between – orasida) – *interangular (distance) – burchaklararo (masofa); interankle – o‘zaro bog‘lanish; micro* (small-scale – kichik o‘lchamli) – *microarea – (mikrohudud) kichik hudud; microblock – (mikroblok) kichik blok; mono* (one – bittalik) – *monocopy – yagona nusxa; monolith – monolit; penta* (five – beshlik) – *pentablock – pentablok (tabiiy toshdan qilingan vertikal blokchalar); pentacolor – beshrangli; under* (beneath, not enough – past yoki yetarli emas) – *underground – yerosti; underside – pastki tomon; sub*

¹⁴Кубрякова Е.С. Семантика производного термина//Внутренняя структура языка. – М.: 1972. – 154 с.

¹⁵<https://en.wikipedia.org/wiki/Prefix>

(below – ostida, pastida) – *substructure* – *poydevor*; *subframe* – *pastki rom (ramka)* va b.

Ingliz tilida mazkur uslub faol bo‘lsa-da, o‘zbek tilida esa nisbatan passiv so‘z yasash usuli hisoblanadi.

Ingliz tili arxitektura va qurilish sohasiga oid terminlarni shakllanishida ham suffiksatsiya mahsuldorligi bilan ajralib turadi.

A) ot yasovchi qo‘shimchalar ($V_{fe'1} \rightarrow N_{ot}$): - **er** – *filler* – to‘ldiruvchi; *clinker* – klinker (sement ishlab chiqarishdagi vositachi mahsulot); *controller* – nazoratchi; *dispatcher* – yetkazuvchi (dispatcher); *cryptographer* ($N_{ot} \rightarrow N_{ot}$) – binoni raqamlashtiruvchi mutaxassis; *programmer* – loyihachi, dasturchi; - **or** – *conductor* – yo‘naltiruvchi (xomashyoni); *contractor* – pudratchi; *devastator* – buzuvchi (eski imoratlarni); - **ment** – *basement* – yerto‘la; *agreement* – kelishuv; - **ant** – *negotiant* – muzokara olib boruvchi; *informant* – ma‘lumot beruvchi; *desiccant* – qurituvchi (kimyoviy modda); - **tion** – *composition* – ijod namunasi, binolar jamlanmasi; *formation* – yaratish; *construction* – qurilish yoki tayyor imorat. Bundan tashqari, - **ness** suffiksi mavjud bo‘lib, u quyidagi misollarda ishtirok etgan. Masalan: ($Adj_{sifat} \rightarrow N_{ot}$) – *porousness* – g‘ovaklik; *thickness* – qalinlik; *tightness* – zichlik kabilar; *bigness* – kattalik.

V) fe‘l yasovchi qo‘shimchalar ($N_{ot} \rightarrow V_{fe'1}$): - **fy** objectify – gavdalandirish; *solidify* – qattiq holga kelmoq; *emulsify* – emulsiya holatiga keltirmoq; - **ise/-ize** – *crystallize* – kristallga aylantirmoq, kristallashmoq; *fossilize* – toshday qotirib qo‘ymoq.

S) sifat yasovchi qo‘shimchalar ($N_{ot} \rightarrow Adj_{sifat}$): - **ish** ($N \rightarrow Adj.$) – *squarish* kvadratsimon; *roundish* – doirasimon; *sandish* – qumli - **less** ($N \rightarrow Adj.$) – structureless – shaklsiz; *wireless* – simsiz; *roofless* – tomsiz; - **al** ($N \rightarrow Adj.$) *portal* – ravoq, asosiy kirish yo‘li; *frontal* – old tomonga joylashgan; - **oid** ($N \rightarrow Adj.$) *plastmold* – plastikli.

D) ravish yasovchi qo‘shimchalar: - **ly** ($Adj_{sifat} \rightarrow Adv_{ravish}$, ba‘zan $N_{ot} \rightarrow Adj_{sifat}$): *partly* – qisman (*bir qismi tayyor bo‘lgan obyekt*); *perfectly* – mukammal, yetarlicha yaxshi; *ideally* – a‘lo darajada.

O‘zbek tilida ham faol so‘z yasash usullaridan biri bu *suffiksatsiya*dir. Bu usul sof o‘zbekcha qo‘shimchalarni o‘zbekcha asosga qo‘shish yordamida yoki o‘zbekcha qo‘shimchalarni boshqa tildan olingan so‘zga qo‘shish orqali vujudga keladi. Mazkur usul o‘zbek tili sathida arxitektura va qurilish sohasi terminologik birliklarining shakllanishi ingliz tiliga nisbatan mahsuldor sanaladi. Quyida ot so‘z turkumiga oid leksik birliklarning yasalişini kuzatish mumkin. Masalan: -**chi**: *pudratchi*, *ijarachi*, *andazachi*; o‘zlashma negiz tarkibida: *kran* (ing.)+*chi*;

-**lik**, (-*liq*): *yodgorlik*, *naqqoshlik*, *o‘ymakorlik*, *me‘morlik*;

-**gich**, (-*kich*, -*g‘ich*): *ko‘rsatkich*, *o‘tkazgich*;

-**m**, (-*im*, -*um*): *unum*, *qism*, *yechim*;

-**v**, (-*uv*,): *to‘lov*, *kelishuv*, *qoplov*;

-(*u*)**vchi**, (-(*lo*)*vchi*): *baholovchi*, *boshqaruvchi*.

Bizningcha, har bir so‘z yasovchi qo‘shimchalar qaysi tilga mansub bo‘lishidan qat’i nazar lug‘at tarkibini kengaytirishga va boyitishga xizmat qiladi. O‘zbek tilida ham bu jarayon kuzatiladi, xususan, tojik va boshqa tillardan o‘zlashgan

qo‘shimchalar so‘zning asliyatidan qat’i nazar umumiste‘mol so‘lashuvda qo‘llaniladi.

Chog‘ishtirilayotgan ikki tilda qo‘shimchalar orqali yangi leksik birlik yasash usulidan yana biri *circumfix* – *sirkumfiksatsiya* deb nomlanadi. Ular bir vaqtning o‘zida leksik birliklarning old va orqa qismiga teng qo‘shilishi natijasida shakllanadi. Mazkur usul ingliz tilida o‘zbek tiliga nisbatan faol bo‘lib, ilmiy izlanishlarimizga ko‘ra, ushbu usulga tegishli qirq ikki termin aniqlandi. Jumladan:

dis → *figure* ← *ment* – *disfigurement* (N) – buzib ko‘rsatish;

en → *tangle* ← *ment* – *entanglement* (N) – devor ustidagi sim to‘siq;

en → *grave* ← *r* – *engraver* (N) – o‘ymakor (usta);

dis → *patch* ← *er* – *dispatcher* (N) – qurilish nazoratchisi;

un → *build* ← *able* – *unbuildable* (N) – qurib bo‘lmaydigan;

un → *allow* ← *able* – *unallowable* (ruxsat etilmagan) kabi terminlar aynan sirkumfiksatsiya usuli uchun dalil hisoblanadi.

O‘zbek tilida mazkur usul yordamida terminlarni yasash uslubi miqdori sezilarli darajada ancha kamchilikni tashkil etadi. Masalan, *no+turar-noturar joy*, *no+tekis-notekis maydon*, *no+yob noyob qazilma*.

Arxitektura va qurilish terminologik birliklarining morfologik xususiyatlaridan yana biri – **compounding** – qo‘shish usulidir (*kompozitsiya*). Ingliz va o‘zbek tillarida ikki yoki undan ortiq mustaqil ma’no beruvchi leksik birliklarni bir-biriga qo‘shish orqali yangi so‘z hosil qilinishi *compounding* – so‘zga so‘z qo‘shish usuli yordamida amalga oshiriladi.

2-jadval

Arxitektura va qurilishga oid qo‘shma terminlarning so‘z turkumlari orqali tasniflanishi

| <i>N+N – Ot+ot</i> | <i>N – ot</i> | Tarjimasi |
|----------------------|----------------------|-----------------------------|
| <i>card+board=</i> | <i>cardboard -</i> | <i>karton</i> |
| <i>main+beam=</i> | <i>mainbeam-</i> | <i>asosiy ustun</i> |
| <i>floor+beam=</i> | <i>floorbeam -</i> | <i>ko‘ndalang ustun</i> |
| <i>wall+paper=</i> | <i>wallpaper -</i> | <i>gulqog‘oz</i> |
| <i>summer+house=</i> | <i>summerhouse -</i> | <i>shiypon</i> |
| <i>quarry+stone=</i> | <i>quarystone-</i> | <i>xarsangtosh</i> |
| <i>tool+box=</i> | <i>toolbox -</i> | <i>anjomquti</i> |
| <i>water+way=</i> | <i>waterway -</i> | <i>suyvo‘lak, suyvo‘lka</i> |

Tahliliy kuzatuvlar natijasida ingliz tilida arxitektura va qurilish terminlarining vujudga kelishida qirqdan ortiq morfologik modellar mavjudligi aniqlandi, biroq ularning barchasi ham faol emas. Shu bilan bir qatorda ingliz tilida sohaga oid qo‘shma terminlarni so‘z yasovchi o‘n turdagi quyidagi faol modellarini keltirish mumkin.

V+N (*fe'l+ot modeli*): *dump+truck = dumptruck (avtosamosval); cut+glass = cut-glass (kesilgan oyna);*

Prep. + N (*predlog + ot modeli*): *back + ground = background (orqafon);*

Adv. + N (*ravish + ot modeli*): *back+board=backboard (narvon); fore + man = foreman (usta); back +actor = backactor (yuk mashinalarini ortidan yordam beruvchi xodim);*

Prep. + Ger. (*predlog + gerundiy modeli*): *out+building=out+building (qo'shimcha bino);*

Prep. + V (*predlog + fe'l modeli*): *up+keep= upkeep (yaxshi holatda saqlash);*

V+Adj. (*fe'l+sifat modeli*): *step+wise= stepwise (bosqichma-bosqich);*

V+ Prep. (*fe'l+ predlog modeli*) *build+up= buildup (yig'ma uy);*

Adj.+ V (*sifat + fe'l modeli*): *white+wash = whitewash (oqlamoq);*

Adj.+ N (*sifat + ot modeli*): *vibra+shovel= vibrashovel (tebranuvchi kurak).*

Sh.Rahmatullayev “Qo'shma so'zlar – leksik ma'no ifodalovchi ikki va undan ortiq o'zaklarning birikuvidan hosil bo'ladi..., o'zbek tilida qo'shma so'zlar umumiy holda so'z birikmalarining ma'no va grammatik jihatdan yaxlit bir holga kelishi natijasida vujudga keladi”, – deya ta'kidlaydi¹⁶.

O'zbek tilida arxitektura va qurilish sohasiga oid qo'shma so'zlar yoxud qo'shma terminlar aksariyat hollarda kalkalash orqali vujudga keladi. Masalan: 1) **o'zbek + o'zbek** modeli: *qum+tosh= qumtosh; qo'l + qop = qo'lgop; ayri + chiziq = ayrichiziq; ayg'iz + shoti = ayg'izshoti (toldan yasalgan narvon); bel + kurak = belkurak; o'roq+randa = o'roqranda; 2) o'zbek + arab* yoxud **arab + o'zbek** modeli: *anilin (arab) + bo'yoq (o'zbek) = anilinbo'yoq (ko'k rangli bo'yoq); 3) fors + arab* yoki **arab + fors** modeli: *mo'y (fors) + qalam (arab) = mo'yqalam; tomosha (arab) + xona (fors) = tomoshaxona (teatr, sirk) o'zbek + fors* yoki **fors + o'zbek** modeli: *tizza (o'zbek) + band (fors) = tizzaband; yo'lbars (o'zbek) + dum (fors) = yo'lbarsdum (naqsh turi); dast (fors) + tesha (o'zbek) = dasttesha (qo'ltesha); 5) lotin + o'zbek* modeli: *alyumin (lotin) + qog'oz (o'zbek) = alyuminqog'oz* kabi so'zlar.

O'zbek tilida arxitektura va qurilishga oid takroriy so'zlar, terminlar ham ingliz tilidagi kabi vujudga kelishi aniqlandi. Mazkur so'z yasash usuli har ikkala tilda ham keng tarqalgan usullardan biridir. O'zbek tilidagi N.Mamatovning qo'shma so'zlar lug'ati tahliliga ko'ra, arxitektura va qurilishga oid ushbu usul bilan yasalgan 900 dan ortiq sof va aralash turdagi terminlar mavjud.

Tadqiqotda mazkur tilshunos olimlarning fikrini qo'llab-quvvatlagan holda, terminlarning yasaliş usullari (morfologik, leksik, semantik, sintaktik) turlicha ekanligini qayd etish mumkin.

Ingliz va o'zbek tillarida sintaktik bog'lamlarga o'ziga xos ta'sir ko'rsatuvchi usul bu o'zlashtirish usuli hisoblanadi. B. Braysonning ta'kidlashicha, ingliz tilidagi ko'plab leksik birliklar aynan *o'zlashtirish* usuli orqali kirib kelgan¹⁷. Quyidagi misollar orqali ingliz tili tarkibidagi soha terminlarini kuzatish mumkin.

¹⁶Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. Иккинчи нашр. – Тошкент, 2010. – Б. 61.

¹⁷Bryson B. Made in America. – William Morrow, 1994. – P. 27.

O'zlashtirish usuli orqali hosil bo'lgan terminlar

| <i>Mansub tillar</i> | <i>Termin</i> | <i>Asliyat</i> | <i>Ma'nosi (o'zb.)</i> |
|----------------------|---|---|---|
| <i>Lotin tili:</i> | <i>cell</i> <i>evacuate</i> | <i>cella</i> <i>evacuatus</i> | kichik xona ko'chirmoq |
| <i>Norveg tili:</i> | <i>mesh</i> <i>sand</i> | <i>möskvi</i> <i>sandr</i> | to'r qum |
| <i>Arab tili:</i> | <i>Amber</i> | <i>Anbar</i> | qahrabo |
| <i>Fransuz tili:</i> | <i>screen</i> <i>panel</i> <i>brush</i> <i>palette</i> | <i>escren</i> <i>panneau</i> <i>brousse</i> <i>palette</i> | yog'och, taxta taxta to'shama mo'yqalam cho'tka shpatel |
| <i>Golland tili:</i> | <i>peg</i> <i>masterpiece</i> | <i>pegge</i> <i>meesterstuk</i> | pona shoh asar |
| <i>Italian tili:</i> | <i>pipe</i> <i>socle</i> <i>festoon</i> | <i>pipa</i> <i>zoccolo</i> <i>festone</i> | quvur sokol hoshiya |
| <i>Dat tili:</i> | <i>Stone</i> | <i>Steen</i> | tosh |
| <i>Nemis tili:</i> | <i>Stamp</i> | <i>Stempel</i> | tang'a, muhr |

O'zbek tili o'zlashma qatlamining lug'at tarkibida sohaga oid arab, fors, rus, ingliz, fransuz va boshqa tillardan kirib kelgan leksik birliklar mavjud. Yevropa tillaridan o'zlashgan so'zlar, asosan, vositachi tillar orqali kirib kelgan bo'lsa, Osiyo tillaridan o'zlashgan so'zlar o'zaro diplomatik munosabatlar mahsulidir. Shu bois mazkur tilda ham so'z o'zlashtirish faol usullardan biri hisoblanadi.

O'zlashma terminlarga namunalari

| <i>Mansub tillar</i> | <i>Termin</i> | <i>Asliyati</i> | <i>Ma'nosi (o'zb.)</i> |
|----------------------|---|---|---|
| <i>Lotin tili</i> | <i>fronton</i> <i>armatura</i> <i>konus</i> | <i>frontalis</i> <i>armatura</i> <i>konus</i> | peshtoq po'lat temir uchli geometrik shakl |
| <i>Fransuz tili</i> | <i>sement</i> <i>filter</i> <i>tonnel</i> | <i>cimenter</i> <i>filter</i> <i>tonnelle</i> | qotiruvchi vosita tozalovchi vosita yerosti yo'li |
| <i>Ingliz tili</i> | <i>blok</i> <i>trek</i> | <i>block</i> <i>track</i> | beton g'isht yo'lka |
| <i>Italian tili</i> | <i>karton</i> | <i>cartone</i> | qattiq qog'oz |
| <i>Arab tili</i> | <i>musavvir</i> <i>istehkom</i> <i>minora</i> | مسور استحكام منارة | rassom harbiy qo'rg'on mayoqsimon bino |

| | | | |
|---------------------|--|--|--|
| Fors tili | <i>Ko‘cha;</i> <i>Ganch;</i> <i>kashak</i> | کوچه گچ گچگ | ko‘cha, xiyobon alibastr, bo‘r tirgagich |
| Golland tili | <i>trap</i> | <i>trap</i> | narvon |
| Nemis tili | <i>trassa</i> <i>shpal</i> <i>shpatel</i> | <i>trasse</i> <i>spale</i> <i>spatel</i> | chiziq uzun yassi xoda suvoq kurakchasi |
| Rus tili | <i>gayka</i> | <i>Gayka</i> | mustahkamlash qurilmasi |
| Polyak tili | <i>shpilka</i> | <i>Szpilka</i> | tom uchi |

Ilmiy manbalarga tayanib shuni qayd etish mumkinki, o‘zlashma terminlarni biror-bir tilda paydo bo‘lishini quyidagi omillar orqali ifodalash mumkin: 1) kishilarning multilingual (ko‘p tilli) muloqotga kirishishi natijasida; 2) bir tilning ikkinchisiga nisbatan dominantligi natijasida; 3) globallasuv va integratsiyalashuv jarayoni ehtiyoji natijasida; 4) boshqa tillarda keng nufuzga ega bo‘lgan birliklarning umumiste‘moli natijasida; 5) muloqot uchun qulay bo‘lgan boshqa tildagi so‘zdan foydalanishi natijasida paydo bo‘lishi mumkin.

“Ingliz va o‘zbek tillarida arxitektura-qurilish sohasiga oid leksik birliklarning tarjima qilish masalalari” deb nomlangan uchinchi bobda soha terminlarining tarjimada ekvivalentlik xususiyatlari haqida so‘z boradi.

Terminologiya sohasida tarjimaning o‘rni muhim bo‘lib, bunda “tarjimaviy ekvivalentlik”, ya’ni “muqobillik” muhim ahamiyat kasb etadi.

Lingvistik manbalar asosida shuni qayd etish joizki, tarjima jarayonida til birliklari muqobilligini ta’minlashda tarjimon tarjima qiyinchiliklariga duch kelishi mumkin. Bu kabi muammolarni Kristian Nord to‘rt toifaga: a) *pragmatik*; b) *madaniy*; v) *lingvistik* va g) *matnga xos* muammolarga ajratadi¹⁸. Ushbu muammolar yechimini topish uchun tarjimondan aniq tarjima strategiyasini qo‘llash talab qilinadi.

